

**KVALIMETRIYA PEDAGOGIK FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH
VOSITASI SIFATIDA****A'zamova Mashhuraxon Nodirxon qizi**

FarDU pedagogika yonalishi 3-bosqich talabasi.

+99890-274-25-14 mashxuraazamova4@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.15869974>

Annotatsiya. Ushbu maqolada kvalimetriya tushunchasi, uning pedagogik faoliyat samaradorligini baholashdagi o'rni va amaliy ahamiyati yoritilgan. Ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan islohotlar doirasida o'qituvchilar mehnatini, ta'lim jarayonining natijadorligini aniq, ob'yektiv va tizimli baholash ehtiyoji ortib bormoqda. Mazkur maqolada kvalimetriya vositasida o'qituvchilik faoliyatining turli jihatlarini (metodik yondashuv, dars sifati, o'qituvchilarning natijalari va h.k.) baholash mexanizmlari va tamoyillari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: pedagogika, kvalimetriya, baholash, reyting, ta'lim sifati, ko'rsatkichlar, mezonlar, kvalimetrik metodlar, statistika, tahlil.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ta'lim islohotlari ta'lim sifatini oshirish, zamonaviy baholash mezonlarini joriy etish va pedagogik faoliyatni tizimli tahlil qilishni talab qilmoqda. O'zbekiston-2030 rivojlanish strategiyasi, shuningdek, Prezidentning PQ-4310-sonli qarorida belgilangan vazifalar pedagogik jarayonni samarali tashkil etish va baholash mexanizmlarini yangilash zaruratini ko'rsatmoqda. Bu jarayonda kvalimetriya fanining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Kvalimetriya — bu faoliyat natijalarini raqamli ifoda etish, obyektiv ko'rsatkichlar asosida baholash, taqqoslash va takomillashtirish imkonini beradigan fan bo'lib, ayniqsa pedagogik faoliyat samaradorligini tahlil qilishda muhim vositaga aylanmoqda. Ushbu maqolada aynan kvalimetriyaning pedagogik baholashdagi o'rni, uning zamonaviy talablarga muvofiqligi, ta'lim sifati monitoringi bilan bog'liqligi hamda uni amaliyotda qo'llash yo'llari keng tahlil qilinadi. Kvalimetriya-tabiatdagi barcha obyektlarni va jamiyatda sodir bo'ladigan barcha jarayonlar, ishlab chiqarish sohasida yaratilgan mahsulotlarning sifatini miqdoriy baholash muammolari va metodologiyasini o'rganuvchi ilmiy fan. Kvalimetriya-(lotincha quails-sifat, qadimiy yunoncha metros- o'lchov) mdagan ma'noni anglatib, obyekt, mahsulot, jaraenlar sifatini miqdoriy baholash metodlarini o'zida mujassamlashtirgan, turli metod va vositalar yordamida erishilgan natijani belgilovchi fan tarmog'i. Kvalimetriya fan sifatida o'rganilishi va baholanishi lozim bo'lgan obyektning sifatini belgilovchi hajm, birlik, shkala, talablar yordamida mazkur obyektning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini aniqlashni belgilangan va qabul qilingan o'lchov jaraenini amalga oshirish nazariyasi asosida o'rganadi.

Kvalimetriya yuqorida qayd etilgan har bir guruhning miqdor va sifat ko'rsatkichlarini yaxlitlikda o'rganadi va baholashning umumiy tartibini ishlab chiqadi. Obyekt va mahsulotlarning sifatini tashxislash va miqdoriy baholash eramizdan avvalgi XV-asrda yo'lgan qo'yilgan bo'lib, dastlab hunarmandlar o'z mahsulotlari sifatini belgilaydigan ko'rsatkichlarni aniqlagan va sifat belgilarini qo'ya boshlaganlar. Shu tariqa sifat ko'rsatkichlariga asoslangan tovarshunoslik vujudga kelgan va 1549-yili Italiyadagi Paduan universitetida dastlabki tovarshunoslik kafedraasi tashkil etilgan. XIX-XX- asrning boshlarida AQSH va Yevropa mamlakatlarida obyekt va mahsulotlarni ballar vositasida baholash va standartlashtirish yo'lga qo'yildi.

Shu tariqa boshqa mamlakatlarda ham sifat ko'rsatkichlarini aniqlash va amaliyotga qo'llash borasida muayyan ishlar amalga oshirila boshlandi. Bu harakatlar kvalimetriyaning ilmiy fan sifatida maydonga chiqishigam va tadqiqot ko'lami kengayishiga turtki bo'ldi.

Kvalimetriyaning uchta: nazariy (umumiy), maxsus, va amaliy tarmoqlari mavjud.

Nazariy kvalimetriyada aniq obyekt loyihalanadi (abstraksiyalanadi) va uning sifat ko'rsatkichlarining umumiy qonuniyatlari va matematik modellari o'rganiladi. Nazariy kvalimetriyaning tadqiqot objekti jism, ishlab chiqarish mahsulotlari, obyekt va subyektlarning sifatini miqdoriy baholashning falsafiy va metodologik asoslarini ishlab chiqish sanaladi.

Nazariy kvalimetriyaning amaliy sohalarida turli obyekt va mjarayonlarning sifatini baholash metodikasi va nazariy asoslari umumiy xususiyatga ega. Maxsus kvalimetriya turli xildagi va har xil maqsadda foydalaniladigan aniq obyektning sifatini baholashning aniq metodikasi va matematik modelini ishlab chiqadi. Maxsus kvalimetriyaning ekspert, ehtimollik-statistik, indeksli, kvalimetrik taksonomiya kabi turlari mavjud. Amaliy kvalimetriya-texnika, ishlab chiqarish, inson mehnati faoliyati, turli loyiha va jaraenlarning sifatini baholashni ishlab chiqadigan soha sanaladi. Amaliy kvalimetriyaning boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanib, texnik kvalimetriya, ijtimoiy kvalimetriya, pedagogik kvalimetriya, tibbiy kvalimetriya, geologik kvalimetriya va hakoza tarmoqlari mavjud. Bozor iqtisodiyoti davrida mahsulot (buyum, xizmatlar, jarayonlar)ning raqobatbardoshligi hal qiluvchi ahamiyatga ega yoki bu buyum, xizmatlar, jarayonlarga ehtiyoj bo'lishi uchun muayyan xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirish, maqsadga muvofiq bo'lish, belgilangan vazifalarni bekamu-ko'st bajarish kabi qiymatga ega bo'lishi lozim. Ishlab chiqarish mahsulotlari va jaraenlarda mazkur belgilarning bo'lishi ular sifatining miqdoriy baholash imkonini beradi. Xalqaro tajribalar buyum, xizmatlar, jarayonlarning yuqori sifatli bo'lishiga erishish uchun ularning sifatini aniqlaydigan ilmiy, texnik va tashkiliy mezonlar ishlab chiqilishi lozimligini ko'rsatdi. Muayyan obyekt yoki jarayon borishi, xizmatlar, jarayonlar sifati etalon sifatida qabul qilingan modelning mezonlari bo'yicha o'lchash va olingan natijalarni taqqoslash orqali baholash amalga oshiriladi.

Xulosa qilib aytganda kvalimetriya buyum, xizmatlar, jarayonlarning sifatini baholash masalalarini o'rganadi. Bu jarayonda kvalimetriyaning asosiy metodlari: tahlil, sintez, qiyoslash va taqqoslash sanaladi. Etalon sifatida qabul qilingan modelning sifat ko'rsatkichlari asosida baholanayotgan obyektning xususiyatlari hisobga olingan holda uning sifati aniqlanadi.

Kvalimetriyaning amaliy tarmog'i bo'lgan pedagogik kvalimetriyada kadrlarni tayyorlashda malaka talablari etalon sifatida qabul qilingan bo'lib, pedagogik kadrlarning kasb malakasi va pedagogik mahorati sifati taqqoslash orqali aniqlanadi. Raqobatbardosh pedagogik kadrlarni tayyorlash jarayonida mazkur jarayonni maqsadga muvofiq tashkil etish va boshqarishni rejalashtirish, o'quv jarayonini modernizatsiyalash, mazkur jarayonni metodik va texnik jihatdan ta'minlashni talab etadi. Ta'lim sifatini baholash keyinchalik uning natijadorligini bir necha barobarga oshirish, ta'limdagi samarasiz metodlarni samaralisiga almashtirish, o'qituvchi o'z faoliyatida davomida o'z o'zini refleksiya qilishi imkoniyatini beradi. Pedagogik kvalimetriyadagi har bir metod o'z xususiyatini ta'limning yo'nalishlariga muvofiq moslashtiradi hamda o'quvchining qobiliyatlarini yuzaga chiqarishda obyektiv baholashdan foydalanish zarurligini nazarda tutadi. Pedagog olim Q. Nazarov ta'kidlaganidek, "Kvalimetriya metodlari ta'lim sifati bahosini faqat sonlar bilan emas, balki chuqur tahlil asosida aniqlash imkonini beradi". "Pedagogik kvalimetriya ta'lim sifatini boshqarishning muhim vositasi bo'lib, o'quv jarayonining samaradorligini aniqlashda mezon va ko'rsatkichlarga tayangan ilmiy yondashuvni ta'minlaydi".

Ushbu fikr esa pedagogik kvalimetriya o'quv jarayonida ilmiy aspektda ish ko'rishning asosi sifatida eng muhim ilmiy va amaliy jarayon ekanligini tasdiqlaydi. Uning pedagogikadagi muhim ahamiyati quyida atroflicha yoritiladi. Fanning ta'limdagi ahamiyati, dolzarbli yurtimizda ta'lim islohotlarini muhim tarkibiy qismi sifatida yuksak O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4310-sonli qarorida ta'lim sifatini baholash tizimini tubdan isloh qilish, shaffof va ilmiy mezonlar asosida baholash tizimini yaratish zarurligi ta'kidlangan. Ushbu qarorda qayd etilganidek, pedagogik faoliyat natijadorligini obyektiv mezonlar asosida tahlil qilish, o'quvchilarning bilim va kompetensiyalarini aniqlashda kvalimetrik yondashuv muhim vosita sifatida ko'rilmoqda.

1. Ta'lim sifati monitoringini ta'minlaydi.

Kvalimetriya yordamida o'quv dasturlarining samaradorligi, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari ilmiy asosda baholanadi. Bu esa ta'lim sifatini muntazam nazorat qilish imkonini beradi.

2. Obyektiv baholashni yo'lga qo'yadi.

An'anaviy baholash usullarida subyektivlik (o'qituvchining shaxsiy qarashlari) mavjud bo'lishi mumkin. Kvalimetrik yondashuv esa mezon va ko'rsatkichlarga tayangan holda, aniq va ishonchli baholashni kafolatlaydi.

3. Pedagogik jarayonni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Talabalar bilim darajasini tahlil qilib, qaysi sohalarida kamchilik borligini aniqlash orqali o'qitish metodikasi va mazmunini yangilash imkoniyati yaratiladi.

4. Individual yondashuvni rivojlantiradi.

Har bir o'quvchining yutuq va kamchiliklari aniq mezonlar asosida tahlil qilinib, individual rivojlanish yo'nalishlari belgilanishi mumkin.

5. Innovatsion yondashuvlarni baholashga yordam beradi.

Yangi o'quv texnologiyalari yoki usullari samaradorligini taqqoslash va tahlil qilishda kvalimetriya muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

6. Ta'lim natijalarini standartlar bilan solishtirish imkonini beradi.

O'quvchilarning yutuqlarini davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlari bilan solishtirish orqali sifatni nazorat qilish imkonini yaratadi.

Kvalimetriya metodlari — ta'lim sifatini aniqlash, o'quvchilar yutuqlarini baholash va tahlil qilishda mezonlarga asoslangan, aniq, tizimli yondashuvlar yig'indisidir. Bu metodlar yordamida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarining darajasi ob'yektiv ko'rsatkichlar asosida baholanadi.

Asosiy kvalimetrik metodlar va ularning pedagogikadagi qo'llanilishi:

1. Ekspert baholash metodi

Tajribali mutaxassislar (ekspertlar) tomonidan ta'lim sifatining yoki o'quv dasturining samaradorligi baholanadi. Dars samaradorligini, o'qituvchi faoliyatini, yangi o'quv metodikalarini baholashda keng qo'llaniladi.

2. Reyting (ballik) baholash metodi

Talabalar bilimini ballar yoki reyting tizimi orqali baholashdir. Pedagogikadagi qo'llanilishi: Yillik, semestrluk natijalarni hisoblashda, talabani reyting asosida rag'batlantirishda.

3. Ko'rsatkichlar va mezonlar asosida baholash

Oldindan belgilangan mezon va ko'rsatkichlar asosida baholashdir. O'quvchilarning yozma ishlari, loyiha ishlari, mustaqil ishlari mezon asosida tahlil qilinadi.

4. Matematik-statistik usullar

O'quvchilar bilimini sonli ifodalar orqali tahlil qilish (o'rtacha ball, modali baho, dispersiya va boshqalar). Sinalgan testlarning ishonchliligi, o'quvchilarning umumiy baholar tahlili, guruhlar kesimidagi taqqoslovchi tahlil.

5. Diagnostik testlar va monitoring

Maxsus testlar yordamida o'quvchilar bilim holati aniqlanadi.

Boshlang'ich, joriy va yakuniy baholashda keng foydalaniladi. Masalan, o'quv yili boshida diagnostika o'tkaziladi.

Metodlarning afzalliklari:

- Baholashda adolat va shaffoflikni ta'minlaydi.
- Talabalarning individual yutuq darajasini aniqlash imkonini beradi.
- O'qituvchiga metodik tahlil asosida o'z faoliyatini takomillashtirishga yordam beradi.
- Ta'lim jarayonini optimallashtirish va innovatsiyalarni joriy etish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, kvalimetriya — ta'lim jarayonidagi sifat ko'rsatkichlarini aniqlash, baholash va tahlil qilishga xizmat qiluvchi zamonaviy ilmiy yo'nalishdir. Uning pedagogikadagi o'rnini nihoyatda muhim bo'lib, u ta'lim jarayonini samarali boshqarish, natijalarni obyektiv baholash hamda o'quvchi va o'qituvchilarning faoliyatini tahlil qilish imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogikada kvalimetriya ta'lim sifati monitoringi, kompetensiyalarni o'lchash, o'quv dasturlarini baholash, test tizimlarini ishlab chiqish va ta'lim standartlarini tahlil qilishda muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, baholashda shaffoflik, aniqlik va adolat tamoyillarini ta'minlashda kvalimetriya uslublari o'zining ustun afzalliklarini ko'rsatadi.

Shu bois, kvalimetriya nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini aniqlash, balki ta'lim tizimini chuqur tahlil qilish va takomillashtirishda muhim vosita bo'lib, pedagogik faoliyatda ajralmas o'rin egallaydi. Kelajakda raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan kvalimetrik tizimlar ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4310-son qarori. Ta'lim sifatini baholash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. — 2019-yil, 23-aprel
2. Азгальдов Г.Г. Основы квалиметрии. — Москва: Экономика, 1974.
3. Абдусатторов А.Х. Педагогик o'lchov va baholash asoslari. — Toshkent: TDPU, 2020.
4. Назаров К. Ta'limda baholash va monitoring asoslari. — Toshkent: O'zbekiston, 2018.
5. Абдусалимова Н. Ta'lim sifatini baholashning innovatsion metodlari. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
6. Бабаева М. Педагогик диагностика va kvalimetriya. — Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021.
7. Azizxo'jayeva N.N. Педагогик texnologiya va pedagogik mahorat. — Toshkent: Fan, 2006.
8. Xolbekov Q. Ta'lim sifatini boshqarish asoslari. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022.
9. UNESCO. Education Quality Monitoring: Principles and Practice. — Paris, 2017.
10. Комаров С.А., Лебедев О.Е. Педагогическая квалиметрия: теория и практика оценки качества образования. — Москва: Педагогическое общество России, 2016